

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
 Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
 Seyhan Tanju (Turkiya)
 Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
 Benedek Peri (Vengriya)
 Vahit Turk (Turkiya)
 Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
 Eunkyung Oh (Koreya)
 Nazef Shahrani (AQSh)
 Boqijon To'xliyev
 Muhammadjon Imomnazarov
 Bilol Yujel (Turkiya)
 Qosimjon Sodiqov
 Zulxumor Xolmanova
 Mustafa O'ner (Turkiya)
 Nurboy Jabborov
 G'aybulla Boboyorov
 Kimura Satoru (Yaponiya)
 Imran Ay (Turkiya)
 Aftondil Erkinov
 Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
 Rashid Zohidov
 Otabek Jo'raboyev
 Bulent Bayram (Turkiya)
 Qo'ldosh Pardayev
 Nodirbek Jo'raqo'ziyev
 Oysara Madaliyeva
 Hilola Nazirova

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Oysara Madaliyeva**

Alisher Navoiyning 1480-yillar lirikasi tarixiga
 nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya"
 qo'lyozmalari asosida)

4

Furqat To'xtamuratov

"Gulshani jovid" qo'lyozmalari tadqiqi

40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lug'atayn" Eron navoiyshunoslari
 talqinida

57

ADABIYOTSHUNOSLIK**Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî'nin *Hired* Redifli 4 Gazeli Üzerine
 Görüşler ve Hired Kavramı

72

Kemal Yavuz Ataman

Nevâyî Düşüncesinde Cemiyetin İmarı ve
 Nizamı

102

Rıdvan Öztürk

Afganistanlı Şair Âlim Lebib'in Nevaî Şiirlerine
 Yazdığı Nazire Gazeller ile Tahmislerin
 Dilbilimsel Özellikleri

118

LINGVISTIKA**Samixon Ashirboyev**

O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida

131

Baxtiyor Abdushukurov

Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika

143

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Oysara Madalieva**

Insights Into the History Of 'Ali Shīr Navā'ī's
Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts
Divānī jadīd or *Nawādir al-nihāya*) 4

Furqat Tukhtamuratov

Studying the manuscripts of "Gulshani Javid" 40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lughatayn" in the interpretation
of Iranian Navoi studies 57

LITERATURE**Tanju Seyhan**

Opinions on Ali Şir Nevâyî's 4 Ghazes with
Hired Redif and the Concept of Hired 72

Kemal Yavuz Ataman

Construction and Order of the Society in Nevâyî
Thought 102

Rıdvan Öztürk

Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals
and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim
Labib to Nevaî Poems 118

LINGUISTICS**Samikhan Ashirbaev**

On the way to creating the Uzbek national
transcription 131

Bakhtiyar Abdushukurov

Socio-political vocabulary in the epitaph of
Kul-tigin 143

“Gulshani jovid” qo‘lyozmalari tadqiqi

Furqat To‘xtamuratov¹

Abstrakt

Husaynquli Muhsiniy Qo‘qonda (1860-1917) yashab ijod etgan sohibidevon, zullisonayn shoirdir. Shoirdan bizga salmoqli lirik meros yetib kelgan. Bular 1897, 1914, 1916, 1917-yillarda kitobat qilingan “Gulshani jovid” nomli devonining to‘rtta qo‘lyozma nusxalaridir. Ushbu qo‘lyozmalardan ikkitasi Toshkent va Qo‘qon shaharlari qo‘lyozma fondlari hamda muzeylarida saqlanadi. Hozirgi kunda shoirning Qo‘qonda yashayotgan avlodlari shaxsiy kutubxonasida ham ikkita qo‘lyozma mavjud.

Eng mukammal, to‘liq va yaxshi saqlangan Toshkent nusxasini nashr bilan qiyoslaganimizda yuzga yaqin yangi she‘riy asarlar borligi ayon bo‘ldi. Yangi topilgan lirik she‘rlar g‘azal, musamman, muxammas, musaddas, murabba‘, masnaviy, qasida, ta‘rix, noma va ruboiy janrlariga mansubdir.

Ushbu maqolada Muhsiniyning nashr va qo‘lyozmalardagi she‘rlari qiyosiy o‘rganildi. Natijada shoirning joriy imloda e‘lon qilinmagan she‘rlaridan namunalar berildi. Mazkur she‘rlar teran mazmun va xushohang uslubida yozilgani bilan ahamiyatli. Ayniqsa, shoir she‘rlarida ishqiy va diniy-tasavvufiy mavzu o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Mazkur lirik asarlar hozirgacha nashr qilinmagani bilan ham qimmatlidir.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma, devon, janr, g‘azal, tabdil, adabiy muhit, qiyoslash.*

Kirish

Yurtimiz istiqloлга erishgandan so‘ng Milliy uyg‘onish davri adabiyotimiz namoyandalari ijodini birlamchi manbalar asosida o‘rganish va ularning asarlarini nashr qilish borasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Biroq ijodi kam o‘rganilgan shoirlar ham bor. Ana shunday sohibidevon shoirlardan bir – Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniydir (1860-1917). Muhsiniy 1860-yil Qo‘qon shahrining Mirzo Yodgor mahallasida savdogar oilasida

¹ To‘xtamuratov Furqat Safarmuratovich – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-poshta: toxtamuratov81@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

Iqtibos uchun: To‘xtamuratov, F. S. 2024. “Gulshani jovid” qo‘lyozmalari tadqiqi”. *Oltin bitiglar* 1: 40 – 56.

tug'ilgan. U dastlabki ta'limni o'z mahallasida olib, keyin Qo'qondagi Sultonmurodbek madrasasida tahsil oladi. Madrasada fors tili va adabiyotini o'rganadi. Abdulmo'min Shahrisoniydan arab tili va diniy bilimlarni o'zlashtiradi. Muhsiniy bir muxammasida yozishicha, madrasada ilm olishida amakisi Nabiqulning yordami katta bo'lgani va 19 yoshida hajga borganini ham ta'kidlaydi. Shuningdek, "Ma'zratnoma Muhsiniy baxiyi arjumandiyi xud" nomli masnaviyda haj safari xotiralarini yozib qoldirgan. Shoir lirik she'rlarini jamlab devonchilik an'anasiga muvofiq devon tartib beradi. Devonini "Gulshani jovid" deb nomlaydi va unga debocha ham bitadi.

Mumtoz shoirlardan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Amiriy va Nodiralar ijodining ta'siri Muhsiniy she'riyatida seziladi. Ushbu ta'sirlar haqida devonga yozilgan debochada zikr qilingan, shuning barobarida, ularning she'rlariga nazira va taxmislar ham bog'lagan. Zamondosh shoirlaridan Muqimiy, Furqat, Muhiy, Zoriy va Tavalloqlar g'azallariga muxammas va naziralar yozgan. Muhsiniy mumtoz adabiyotning g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, tarje'band, noma, qasida, ta'rix va ruboiy kabi she'riy shakl va janrlarda samarali ijod qilgan.

Shoir she'riyatda shartli tarzda ishqiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy-falsafiy, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy mavzularga ajratishimiz mumkin. Adib she'riyatida ishqiy va diniy-tasavvufiy mavzu yuksak pafos bilan tarannum etilgan. Shu bois Muhsiniyni Milliy uyg'onish davrida diniy-tasavvufiy mavzularda ijod qilgan shoirlardan hisoblanadi.

"Gulshani jovid" devonining qo'lyozma nusxalari

Qo'qon adabiy muhiti shoirlari o'zlarining betakror lirik asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir qilgan. Husaynquli Muhsiniy ham zamondosh ijodkorlari kabi davr ruhini ifodalagan asarlar yozgan sohibidevon, zullisonayin shoirlardan biridir. Shoiridan bizga salmoqli adabiy meros yetib kelgan. Mazkur adabiy meros qo'lyozma shaklida bo'lib, "Gulshani jovid" devonining 1897, 1914, 1916, 1917-yillarda ko'chirilgan to'rtta nusxalaridir. Ushbu qo'lyozmalar Toshkent va Qo'qon shahar fondlari hamda muzeylarida saqlanadi. Shuningdek, hozirgi kunda yashayotgan shoirning qo'qonlik avlodlari qo'lida ham ikkita qo'lyozma mavjud. Shoirning Qo'qon adabiyot muzeyida yana 178 raqamli bayoz va 79/12/ raqamli konvert papkada ham

she'rlari saqlanadi.

Muhsiniy avlodlaridan shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan ilk qo'lyozma devon. Hozirgi kunda shoirning Qo'qon shahrida yashovchi avlodlaridan Madaminjon Nuriddinov qo'lida devonning yana bir nusxasi saqlanadi. Qo'lyozma devon 140 sahifadan iborat bo'lib, shoirning dastxati bilan siyohrang va qora siyohda bitilgan. Devonga g'azal, qasida, masnaviy, murabba', muxammas, qasida jarniga mansub she'rlar kiritilgan bo'lib, 4200 misrani tashkil etadi. Mazkur manbada she'rlar qat'iy tartibga amal qilinmasdan aralash tarzida kitobat qilingan.

Shoir avlodlari shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan ikkinchi qo'lyozma devon. Devon yaxshi saqlangan, biroq ayrim sahifalarida siyoh to'kilgan va she'r matnlari chaplashgani kuzatiladi. Qo'lyozma devon kotibi Muhsiniyning o'zidir. Devon rus fabrika qog'oziga qora rangli siyohda nasta'liq xatida mayda harflar bilan ko'chirilgan. Mazkur devon jami 210 sahifani tashkil etadi. Debocha 2^b-9^b-sahifalardan o'rin olgan. Debochadan so'ng 9^b-sahifada kolofonda forsha *"Tamom shud sana 1333 jumadu-s-soniy no'hum ast, ya'ni jumadu-s-soniy oyining 9-kuni (milodiy 1914-1915-yilga to'g'ri keladi) tugatilgan, deb kitobat sanasi ko'rsatilgan.*

Devonda jami 6 ta qasida bo'lib, ulardan 1 tasi o'zbek va 5 tasi fors-tojik tilidadir. Qo'lyozmada 38 ta ta'rix, o'rin olgan bo'lib, shulardan 10 tasi fors-tojikchadir. Ushbu qo'lyozma devonda jami 236 ta g'azal, 24 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta tarje'band, 3 ta musaddas, 2 ta masnaviy, 6 ta maktub kiritilgan. Devondagi she'rlarning umumiy hajmi 7438 misradir.

4303 raqamli qo'lyozma devon. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyida 4303 raqam ostida saqlanayotgan ushbu manba turli rangdagi rus fabrika qog'oziga qora siyohda nasta'liq xatida qiya shaklda har bir sahifaga 10 baytdan ko'chirilgan. Ushbu manbada shoirning g'azal, muxammas, tarje'band, musamman, murabba', musaddas va maktub janrlaridagi she'rlari kiritilgan. Qo'lyozmadan shoirning 239 ta g'azal, 32 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta musaddas, 1 ta murabba', 2 ta tarje'band, 4 ta maktub, 1 ta masnaviy janriga oid 7000 misradan ortiq she'rlari o'rin olgan.

178 raqamli qo'lyozma bayoz. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyida saqlanadi. Bayozdan Muhsiniyning "alif" harfi bilan tugagan 12 ta o'zbekcha va 4 ta forsha – jami 16 ta g'azali o'rin olgan. Ulardan 4 tasi to'qqiz,

3 tasi etti va 3 tasi sakkiz baytli g'azallardir. Bundan tashqari, bittadan 10, 11, 13, 18 baytli, ikkita 12 baytli g'azallari ko'chirilgan. Qo'lyozma bayozda jami 308 misra she'r jamlangan.

79/12 raqamli qo'lyozma konvert papka. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyi fondida 79/12 raqamli konvertda Muhsiniyning bir mustazodi yozilgan qo'lyozma varaq saqlanadi. Shu bilan birga, ushbu konvertda ikkita qog'ozda qora siyohda 1 ta 9 baytli, 1 ta 10 baytli va 1 ta 7 baytli o'zbekcha g'azal yozilgan. Jami 26 bayt 52 misra she'r bor.

Qo'lyozma bayozda Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Amiriy, Mavlaviy kabi ulug' shoirlarning sara g'azallari ham kitobat qilingan. Mazkur manba ham shoir dastxati bilan ko'chirilgani bilan qimmatlidir.

7392 raqamli qo'lyozma devon. Mazkur manba O'zR FASHI fondida 7392 raqam ostida saqlanadi. Ushbu manba 1917-yilda Muhsiniyning so'nggi tahriri bilan ko'chirilgan dastxat nusxadir. Qo'lyozma rus fabrika qog'ozida qora siyohda nasta'liq yozuvida kitobat qilingan. Qo'lyozma 168 sahifa bo'lib, yaxshi saqlangani va matniy saktaliklardan holi ekanligi bilan ham tayanch nusxa hisoblanadi. Oldingi qo'lyozmalardagi ko'plab she'rlar muallif tomonidan tahrir qilinib devonga kiritilgan. Muallif devondagi she'rlarning yozilishida ham o'ziga xos shakllardan foydalangan. Masalan, g'azallar to'g'ri chiziq bo'ylab sahifa ikkiga bo'linib, har bir qismiga 15 qatordan yozilgan. Muxammas, musaddas, musamman, tarje'band, noma, qasida, tarix va ruboiylar esa qiya shaklda sahifa ikki bo'lakka ajratilib, har bir bo'lakka 10 qatordan bitilgan. G'azallar boshqa janrdagi she'rlarga nisbatan chiroyli husnixat bilan kitobat qilingan.

Mazkur dastxat devonga 239 ta o'zbekcha va forschaga g'azallar kiritilgan. Qo'lyozmada devon tartib berish an'anasiga muvofiq deyarli barcha arab alifbosidagi harflar bilan tugagan g'azallar bitilgan. Faqat j – j harfi bilan yakunlangan g'azal yozilmagan. Devonga 22 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta, musaddas, 2 ta tarje'band, 1 ta masnaviy, 8 ta noma, 7 ta qasida, 31 ta ta'rix, 28 ta ruboiy kiritilgan. So'nggi o'rganishlar natijasida №7392 dastxat devonda Muhsiniyning 7426 misra she'r mavjudligi aniqlandi.

Shoir ijodida an'anviylik

Qo'qon adabiy muhiti shoirlari o'zlarining betakror lirik asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir qilgan. Ayniqsa, XIX oxiri – XX boshlarida Milliy uyg'onish davri

adabiyoti namoyandalari she'riy asarlari janr va mavzu ko'lamiga ko'ra ma'lum bir o'zgarishlarga uchradi. Ming yillik mumtoz adabiyotimizda qo'llanilib kelingan ishqiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik mavzular o'rnini jaholat, ilmsizlik, vatan va millat ravnaqi uchun qayg'urish tuyg'ulari ifodalangan asarlar egalladi.

Ushbu davrda Turkiston diyori bir tomondan, mutaasib ruhoniylar, adolatsiz hukmdor va mansabdorlar zulmidan aziyat cheksa, ikkinchi tomondan Chor Rossiyasi mustamlakasi istibdodi ostida qolgan edi. Shu bois adolatsiz jamiyatdan ezilgan xalq dardi adabiyotning tasvir obyektiga aylandi. Natijada, adabiyotimizdagi an'anaviy obraz, timsollar yangi ma'no va mazmun kasb etadi. Bu davrda ijtimoiy muammolarni tasvirlash badiiy adabiyotning asosiy vazifasiga aylandi. Ma'lumki, ushbu davrda Turkistonning Xiva, Buxoro, Qo'qon, Toshkent va Samarqand kabi qadimiy shaharlarida adabiy muhit shakllangan edi. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari o'tkir ma'rifatparvarlik va ijtimoiy ruh ifodalangan she'rlari bilan adabiyotimizga yangicha ohanglar olib kirdi. Professor Begali Qosimov o'tgan asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti haqida bunday yozadi: "1905–1917-yillardagi adabiy-madaniy harakatchilikning xarakterli xususiyatini mana shu qizg'in va shiddadli, ayni paytda juda murakkab va tabiiy bo'lgan kurash tashkil etadi. Adabiyot hech qachon bu qadar keskin g'oyaviy-siyosiy kurashlar maydoniga aylanmagan edi" [Qosimov 1983, 28].

Darhaqiqat, Muhiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiylar ijodida bo'y ko'rsatgan ma'rifatparvarlik va ijtimoiylik g'oyalari o'lkaning boshqa hududlaridagi shoirlari asarlarida ham o'z aksini topdi.

XX asr boshlaridagi shoirlar ijod yo'nalishi haqida B. Qosimov boshqa bir asarida yozadi: "Asrimizning dastlabki yigirma yilida shakllangan yangi she'riyat an'anaviy diniy-tasavvufiy she'riyat bilan yonma-yon yashadi. Mirmahmud Qoriy (1834–1904), Yusuf Saryomiy (1845 – 1912), Usmonxo'ja Zoriy (1839–1916), Husaynqul Muhsiniy (1860 – 1917), ayniqsa, Ziyovuddin Haziniy (1861– 1921) bu yo'lda samarali ijod etdilar: "Devoni Qoriy" (T., 1912), "Devoni Yusuf Saryomiy" (T., 1332 h.), "Bayozi Haziniy" (T., 1911), "Devoni Muhsiniy" (qo'lyozma, O'zFASHI inv.№ 7392) va h. k" [Qosimov 2004, 173].

Qo'qonlik shoir Muhsiniy ham salafлари ta'sirida ishqiy, diniy-tasavvufiy, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy mazmundagi she'rlar yozdi. Shoir bir g'azalida yurt va zamon manzarasini tasvirlab achchiq til bilan bunday yozadi:

Nifoq-u kufr bilan to'ldi olam,

Buxoro, xoh Farg'ona, xoh Urganj [Muhsiniy 2008, 22].

Lirik qahramon nazdida yurt jaholat va zalolat botqog'iga botgan. Buxoro, Farg'ona va Urganch kabi ilm-ma'rifat markazi bo'lgan shaharlar ham kufr hamda nizolar bilan to'lgan. O'lkaning shu holatga tushishiga sabab turkistonliklarning ma'rifatsizligi va g'aflat uyqusidan uyg'onmaganligidir. Shoir she'rlarida hazin ohanglar ustuvor bo'lsa-da, so'nggi satrlar nekbin tuyg'ular bilan yakunlanadi. Shu bois shoir Vatan ravnaqi va kelajagiga umid bilan qaraydi, hamda bu jaholat zamoni o'tib yaxshi davrlar kelishiga ishonadi. Mana o'sha tuyg'ular ifodalangan bayt:

*Charx davridan umiding uzmagil, ey Muhsiniy,
Aylanub kelg'ay o'zini o'rnig'a pargorimiz*

[Muhsiniy 2008, 38].

Nashr va qo'lyozma qiyosi

Qo'qon adabiyoti muzeyi ilmiy xodimi Usmonjon Ne'matov ko'p yillik izlanishlari natijasida Muhsiniy devonini "Barhayot gulshan" nomi bilan 2008-yil nashr qildirdi. Ushbu nashrda shoirning g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarje'band, noma, qasida, ta'rix va ruboiy kabi janrlarda yozilgan 4241 misra she'rlari kiritilgan. So'nggi izlanishlarimiz natijasida shoirning qo'lyozmalaridan yuzga yaqin turli janrlardagi she'riy asarlari joriy nashrga kiritilmay qolganini aniqladik.

Matnshunoslik ishlari mumtoz adabiyot bo'yicha qilinadigan tahlil va tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Matnshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari o'rtasidagi bog'liklik haqida professor N. Jabborov bunday yozadi: "Bu fanning adabiyotshunoslik bilan o'zaro munosabatiga kelsak, matnshunoslik izlanishlari bo'lmasa, adabiyotshunoslik tadqiqotlari aksar hollarda o'z ahamiyatini yo'qotadi. Agar adabiy manbani yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog'i zarur. Aks holda poydevorsiz inshoot singari omonat bo'lib qoladi" [Jabborov 2020, 51].

Ma'lum bir shoir devoni qo'lyozmalaridan tayanch nusxani tanlash haqida akademik, Sh. Sirojiddinov fikri quyidagicha: "Matnshunoslikda ilmiy-tanqidiy matn shaklini tuzishda tayanch va asos nusxalarni tanqidiy o'rganish, to'g'ri ilmiy xulosaga kelish muhimdir" [Sirojiddinov, Umarova 2017, 89].

Yuqorida keltirilgan qo'lyozma manbalar orasida 7392 raqamli Toshkent nusxasi birinchidan, shoirning o'z qo'li bilan ko'chirilgan avtograf nusxa ekani, ikkinchidan, ijodkor asarlarining

turli janr namunalari jamlagani, uchinchidan, debocha bilan ta'minlangani, to'rtinchidan, matnning ishonchli va mukammalligiga ko'ra tayanch manba bo'la oladi.

Muhsiniy devonining 7392 raqamli qo'lyozmasi shoir asarlarining mavjud nashrlari bilan qiyoslash natijasida ijodkorning shu paytgacha ilm ahliga ma'lum bo'lmagan 75 ta g'azal, 1 ta murabba, 8 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta musamman, 1 ta qasida, 2 ta masnaviy, 1 ta maktub, 1 ta ruboiy, 7 ta ta'rix janrlariga doir jami 2241 misra yangi she'rlarini aniqladik. Bundan tashqari, shoir devonining "Barhayot gulshan" nomi bilan chop etilgan nashridagi ayrim she'riy asarlardan tushirib qoldirilgan misralar, baytlar va bandlar aniqlanib, turli janrlardagi she'rlarning ishonchli matnlari tiklandi. Ushbu matnshunoslik ishlari shoir adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi jihatidan qimmatlidir.

Shoirning yangi topilgan she'rlari mazmun mohiyati

Muhsiniyning qo'lyozmalardan topilgan yangi she'riy asarlari mavzu ko'lamiga keng va rang-barangligi, hayotiy-falsafiy mohiyat teran ifodalangani bilan ajralib turadi. Shoir she'rlarida ishqiy, diniy-tasavvufiy, marifatparvarlik, axloqiy-falsafiy va ijtimoiy mavzular yoritilgan.

7392 raqamli qo'lyozma devon mumtoz devon tartib berish an'alariga muvofiq tarzda tartib berilganini ko'rishimiz mumkin. Devonga maxsus debocha yozilgan bo'lib, undan so'ng alifbo tartibida hamd, na't, ishqiy va boshqa mazmundagi g'azallar hamda turli janrdagi she'rlar kiritilgan. Mazkur manba asosida tabdil qilingan shoirning yangi she'rlarida an'anaviy ishqiy va diniy-tasavvufiy mavzular o'ziga xos tarzda pafos bilan ifodalanadi. Ushbu g'azallarda diniy tushunchalarga alohida urg'u berilib, oyat va hadislardan bir so'z va birikmalar keltirilib, iqtibos san'atining yorqin namunasi hosil qilingan. Natijada, g'azallar mazmunan teran, shaklan ohangdorlik kasb etgan. Shoirning bir qancha g'azallarida Qur'on oyatlari va hadisi shariflar hamda islomiy manbalar mazmun-mohiyati badiiy talqin qilingan.

Shu vaqtgacha ilm va adabiyot ahliga noma'lum bo'lgan, Muhsiniyning bir qancha yangi g'azallaridan namunalarni kitobxonlar hukmiga havola qilamiz. Mazkur g'azallar O'zRFASHI №7392 inventar raqamli dastxat devondan tabdil qilingan va qo'lyozma matni asosida arab alifbosidagi shaklini ham berdik.

معرفت نوريله كونگلوم نى ضيا قيلغيل كريم
خاطر يمد ين زنگ گرديني صفا قيلغيل كريم
محو اولسون كيم دلیم آينه سينده تيره ليغ
برچه تعليق جهان دين ماسوا قيلغيل كريم
اوتسه عمروم ذكر فكرينگ بيرله دايم صبح شام
دلده تيلده ورد دگریم ربتا قيلغيل كريم
قالميشم عصيان قرانغوسيده يولدين مين آريب
شمع توفيقيم يولومغه رهنما قيلغيل كريم
يار ياور ايلان مردان حققرنى منگا
اهل عرفانلار ايليغه آشنا قيلغيل كريم
تانگلا محشرده منى لب تشنه كوثر بوينده
دست گر اول على المر تضى قيلغيل كريم
اولميشم نفسى هوآيى دامیغه بندأسير
بو اولوغ دشمن نى قيديدين رها قيلغيل كريم
طوف بيت الله ايلاب آرزو هر صبح شام
برآوچ خاكيم نى اول بيرلارغه جا قيلغيل كريم
اولين آخريں جمع اولسه محشرگاه ارا
بس شفيعيمنى محمد مصطفى قيلغيل كريم
جرم عصيان ققلیده بسته ايرور كونكلوم اويى
آنى مفتاح معارف بيرله وا قيلغيل كريم
تابمديم دانش دين اوزگا كسب تا اولغاي مفيد
محسنى نينگ آنى ايلان مبتلا قيلغيل كريم

*Ma'rifat nuri-la ko'nglumni ziyo qilg'il, Karim,
Xotirimdin zangi gardini safo qilg'il, Karim.*

*Mahv o'lsinkim dilim oyinasinda tiyralig',
Barcha ta'liqi jahondin mosuvo qilg'il, Karim.*

*O'tsa umrim zikri fikring birla doim subh-u shom,
Dilda, tilda vurd zikrim "Rabbano" qilg'il, Karim.*

*Qolmisham isyon qorong'usida men yo'ldin ozib,
Sham'i tavfiqim yo'lumg'a rahnamo qilg'il, Karim.*

*Yor-u yovar aylabon mardon haqlarni mango,
Ahli irfonlar elig'a oshino qilg'il, Karim.*

*Tong-la Mahsharda mani labtashna kavsar bo'yida,
Dastgiri ul Alyyul Murtazo qilg'il, Karim.*

*O'lmisham nafsi havoyi domig'a band-u asir,
Bu ulug' dushmanni qaydidin raho qilg'il, Karim.*

*Tavf Baytullohi aylab orzu har subh-u shom,
Bir ovuch xokimni ul erlarg'a jo qilg'il, Karim.*

*Avvalin-u oxirin jam' o'lsa Mahshargoh aro,
Bas shaf'imni Muhammad Mustafo qilg'il, Karim.*

*Jurm-u isyon quflida basta erur ko'nglum uyi,
Oni miftohi ma'orif birla vo qilg'il, Karim.*

*Tobmadim donishdin o'zga kasb to o'lg'oy mufid,
Muhsiniyning oni ilan muftalo qilg'il karim*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392. 62^{ab}].

ای کیلن وصفی جمیلینگ آیت فر قان سنگا
محض رحمت دور وجودینگ معدنی غفران سنگا
مینگ صلوة مینگ سلام یوز مینگ تحیات بنام
ایلاسون ربیم همیشه لطفیدین احسان سنگا
ایکی نرگس کوزلرینگ تفسیری ما زاغ البصر
نعت اوصاف کما لا یتینگده الرحمان سنگا
کوروبان اهل ملل لار راه اذیانین غلط
چکتی لار نسخینه اوز رسمینی هر ادیان سنگا
اولکونی تابد ینگ حریم قاب قوسینا مقام
کورسا توب انده جمالین حضرت سبحان سنگا
ایلاغان آینی اشارنک برله برماغینگ بیلان
ایلااد ینگ ایکی برابرکیم ایدی فرمان سنگا
فیض حق برلان کیلیب سین مبدء فیاضیدین
خلعت جنس رسالت کوردی استحسان سنگا
ایلاگا یمین جانیمی گر یتسه روضنگ طوقینه
نذر خاک آشیانینگ اوزره کیم فرمان سنگا
تانگلا زاهد امتینگ طاعتلارین کیلتورسه لار
کیلتورور بو محسنی یوز تحفه عصیان سنگا

*Ey kelan, vasfi jamiling oyati Furqon sango
Mahz rahmatdur vujuding ma'dani g'ufron sango.*

*Ming salot-u ming salom yuz ming tahiyot-u banom.
Aylasun Rabbim hamisha lutfidin ehson sango.*

*Ikki nargis ko'zlaring tafsiri mazog'albasar,
Na't avsof-u kamolotingda ar-Rahmon sango,
Ko'rubon ahli milallor rohi adyonin g'alat,*

*Chektilar nasxina o'z rasmini har adyon sango,
Ul kuni tobding harimi qobi qavsayno maqom,
Ko'rsatub anda jamolin hazrati Subhon sango,
Aylag'on oyni ishorang birla barmog'ing bilan,
Aylading ikki barobarkim edi farmon sango,
Fayzi Haq birlon kelibsen mabdayi fayyozidin,
Xil'ati jinsi risolat ko'rdi istihson sango,
Aylagoymen jonimi gar yetsa ravzang tavqina,
Nazri xoki oshyoning uzra kim farmon sango,
Tongla zohid ummating toatlari keltursalar,
Kelturur bu Muhsiniy yuz tuh fayi isyon sango*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392. 11^b-12^a].

Muhsiniy lirik merosining salmoqli qismini an'anaviy ishqiy she'rlar tashkil qiladi. 7392 inventar raqamli qo'lyozmada joriy nashrlarga kiritilmagan bir qancha g'azallari mavjud. Mazkur she'rlarda shoir lirik qahramonning muhabbati va ma'shuqa qiyofasini betakror tashbeh va sifatlashlar bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, "Muborak" radifli g'azali oshiqning ma'shuqaga bo'lgan tuyg'u va kechinmalarini jo'shqin hissiyotlar bilan tarannum e'tilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu g'azal musajja' g'azalning ham go'zal namunasi hisoblanib, ikkinchi baytdan maqta'gacha ichki qofiyalanish tartibiga to'liq amal qilinib yozilgan.

"G'azali musajja' (ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo'llaniladigan) – Navoiy, Bobur, Mashrab she'riyatida keng qo'llanilgan" [Yusupova 2022, 174].

G'azalda ishq ulug'lanadi, ishq-muhabbat oshiq qalbi va joniga ozor berishi go'zal shakl va teran mazmun bilan tasvirlanadi. Ishq yo'li xatarli yo'l bo'lib, go'yoki g'amdan xabar beradi. Gohida ishq sinovlari jonga zarar berishi yoki yuz mojaroga sabab bo'lishi ham mumkinligi ifodalanadi. Biroq oshiq ushbu xatarli va ozorli holatni muborak tuhfa sifatida qabul qiladi. Mana yuqoridagi fikrlarimizni asoslaydigan bayt:

*Rohi xatar erur ishq, g'amdin xabar erur ishq,
Jong'a zarar erur ishq, yuz mojaro muborak*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 50^a].

Shoirning bir qancha yangi tabdil qilingan g'azallarida ham ishq-muhabbat mavzusi yorqin tashbehtar bilan yo'g'rilgan va xushohang usulda yozilgani bilan ajralib turadi. Mazkur g'azalda

ham ishq tarannum etilgan:

ای چشمی فتنه جَلاد جور جفا مُبارک
 جانیمغه سالدی بیداد روز دغا مُبارک
 اولدی خراب حالم نورسته نونهلیم
 اولغای سنگا اوبالیم روز جزا مُبارک
 تاکی چکر فراقینگ هم بار اشتیا قینگ
 گوز اوچی برله با قینگ ای مهلقا مُبارک
 صیاد چشمی جادو چون دانه خال هندو
 آغای غزاله آهو آدم ربا مُبارک
 رخساره چون قزیل گل مین تلّبه زارو بلبل
 آواز ایشته قُلُقُل ذوق صفا مُبارک
 خوناب غصّه غم کوزیمنی قیلدی پُرَنم
 قیلسام غبار مقدم مین توتیا مُبارک
 ظلم ایتمه یار بدخو ای ظالم جفاجو
 بر عاشق دعاگو ایلار دعا مُبارک
 راه خطرایرور عشق غمدین خبرایرور عشق
 جانغه ضرر ایرور عشق یوز ماجرا مُبارک
 ای مُلک حُسن شاهی نی مُحسنی گناهی
 یتى فلک که آهی شام صبا مُبارک

*Ey chashmi fitna jallod, javr-u jafu muborak,
 Jonimg'a soldi bedod, ro'zi dag'o muborak.*

*O'ldi xarob holim, navrasta navniholim,
 O'lg'oy sengo ubolim, ro'zi jazo muborak.*

*Toki chekar firoqing, ham bor ishtiyoqing,
 Ko'z uchi birla boqing, ey mahliqo muborak.*

*Sayyodi chashmi jodu, chun dona xoli hindu,
 Olg'ay g'azola ohu, odamrabo muborak.*

*Ruxsora chun qizil gul, man telba zor-u bulbul,
 Ovoz eshitsa "qul-qul", zavqi safo muborak.*

*Xunobi g'ussayi g'am, ko'zimni qildi purnam,
 Qilsam g'ubori maqdam, men, to'tiyo muborak.*

*Zulm etma yori badxo', ey zolimi jajojo',
 Bir oshiqi duogo', aylar duo muborak.*

*Rohi xatar erur ishq, g'amdin xabar erur ishq,
 Jong'a zarar erur ishq, yuz mojaro muborak.*

*Ey, mulki husn shohi, ne Muhsiniy gunohi,
Yetti falakka ohi, shom-u sabo muborak*

[Muhsiniy, Devon. Qo'lyozma. №7392 50^a].

"Qorako'z" radifli g'azalida lirik qahramon yor go'zalligini ta'riflash barobarida, uning makr-hiylalari manbai ko'zi ekanligini ta'kidlaydi. Chunki mumtoz she'riyatimizda ko'z "fitna" qo'zg'ovchi a'zo sifatida talqin qilinadi. Haqiqiy ishq oshiqning ko'zi ma'shuqa ko'ziga tushgan holatdan boshlanadi. Keyingi misrada, ko'zning amri bilan ikki qosh qilichi oshiqni "qatl qilishi" ya'ni o'ziga asir qilib olishi betakror shaklda tasvirlangan. Mana yuqorida tavsiflangan "Qorako'z" radifli g'azal:

كوزلارینگ فتنه سیدور جانغه بلا ای قرا کوز
هر برین غمزه سیدور اینجه بیا ای قرا کوز
قتل عام ایتی کوزونگ امریله قاتینگ قیلیچی
برقلم برله همه نامه سیا ای قرا کوز
بزغه یوز ناز تغافل ستم جور جفا
قیله اغیاریم ایله نوق صفا ای قرا کوز
ایلادینگ بزگا نیچه مرتبه یلغان وعده
یوقمو حسن اهلیدا بر ذره وفا ای قرا کوز
عرض احوالیم سور ملک ملاحت شاهی
درگهنگده یاتا دور زار گدا ای قرا کوز
گل یوزونگ یادیده بو مُحسنی تارتار افغان
عندلیبی که چکراه نوا ای قرا کوز

*Ko'zlaring fitnasidur jong'a balo, ey qaroko'z,
Har birin g'amzasidur inja biyo, ey qaroko'z.*

*Qatliom etti ko'zing amri-la qoshing qilichi,
Bir qalam birla hamma nomasiyo, ey qaroko'z.*

*Bizg'a yuz noz-u tag'oful sitam-u javr-u jafu,
Qila ag'yorim ila zavq-u safo, ey qaroko'z.*

*Aylading bizga necha martaba yalg'on va'da,
Yo'qmu husn ahlida bir zarra vafu, ey qaroko'z.*

*Arzi ahvolimi so'r mulki malohat shohi,
Dargahida yotadur zor-u gado, ey qaroko'z.*

*Gul yuzing yodida bu Muhsiniy tortar afg'on,
Andalibiki chekar oh-u navo, ey qaroko'z*

[Muhsiniy, Devon. Qo'lyozma. №7392 32^b].

مهوشا کلبم ارا ایلاب صفا خوش کیلد ینگیز
 شام هجرانیم نی ایلاب پرسینا خوش کیلد ینگیز
 مدتی بیگانه ایردینگیز رقیب لارسوزیله
 بولدینگیز مو ایمدی یاز آشنا خوش کیلد ینگیز
 تولدوروب بویی معنیر کاکلینگ دین خجره می
 ساچلاری نی نگهتی مشک ختا خوش کیلد ینگیز
 گمره سرگشته ایردیم تیره هجران کونلاری
 کیم بولوب مهر رخیله رهنما خوش کیلد ینگیز
 نرگس چشمینگ خیالیده تنی بیمار ایدیم
 ایلان کام وصا لیلہ دوا خوش کیلد ینگیز
 غرقه بحری سرشک چشم ایردی جسم جان
 ساحل موج نجاتیم ناخدا خوش کیلد ینگیز
 ایلار ایردی محسنی قد ینی سرمشق جنون
 برماقه تعلیم انگا موزون ادا خوش کیلد ینگیز

*Mahvasho, kulbam aro aylab safo, xush keldingiz,
 Shomi hijronimni aylab pursano, xush keldingiz.*

*Mudati begona erdingiz raqiblar so'zi-la,
 Bo'ldingizmu emdi yor-u oshino, xush keldingiz.*

*To'ldurub bo'yi muanbar kokulingdin hujrami,
 Sochlarini nakhati mushki xito, xush keldingiz.*

*Gumrahi sargashta erdim tiyra hijron kunlari,
 Kim bo'lub mehr-u ruxi-la rahnamo, xush keldingiz,*

*Nargisi chashming xayolida tani bemor edim,
 Aylabon komi visoli-la davo, xush keldingiz.*

*G'arqayi bahri sirishki chashm erdi jism-u jon,
 Sohili mavji najotim noxudo, xush keldingiz.*

*Aylar erdi Muhsiniy qaddini sarmashq junun,
 Bermoqa ta'lim anga mavzun ado, xush keldingiz*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 50^a].

ای پری رویوم کورار غه واله زار اولمیشم
 کوز توتوب یولونگده یا مشتاق دیدار اولمیشم
 دردی هجرانینگ نی تارتوب دایما هر صبح شام
 شدت ضعفیله جسم خسته بیمار اولمیشم
 سانچلوب سینم غه تیر غمزه مژگانلارینگ
 زخمناک پاره مجروح افکار اولمیشم

بر کوروب عقلم ازوب آینه حسن جمال
صورت بیجان کبی چون نقش دیوار اولمیشم
کوزلارینگ نرگس لاریدین بولدی احوالیم خراب
رحم ایله بر سورمدینگ تا ناتوان زار اولمیشم
سین عزیز اول حسن مصر ایچره ای یوسف جمال
گرچه خاک آستانینگ اوزره مین خار اولمیشم
نچه ظلم ایتسه کونگل اوزمم پریلار عشقیدین
کوچه مهر مُحبت ایچره بیعار اولمیشم
ساقا لعل لبینگدین جامی دور انیم نی قوی
عمرلار هجر ایلکیدین لب تشنه خمار اولمیشم
مُحسنی شیرین کلام اوصاف خُسنگ نی دیبان
شکرالله مدهینگ ایله تازه گفتار اولمیشم

*Ey pariroyim, ko'rarg'a vola-u zor o'lmisham,
Ko'z tutib yo'lungda yo mushtoqi diydor o'lmisham.*

*Dardi hijroningni tortib doimo har subh-u shom,
Shiddati za'fim-la jismi xasta bemor o'lmisham.*

*Sanchilub siynamg'a tiyri g'amzayi mujgonlaring,
Zaxmnoki pora-u majruh-u afkor o'lmisham.*

*Bir ko'rub aqlim ozib oyinayi husni jamol,
Suvrati bejon kibi chun naqshi devor o'lmisham.*

*Ko'zlaring nargislaridin bo'ldi ahvolim xarob,
Rahm ila bir so'rmading to notavon zor o'lmisham.*

*Sen Aziz ul husni Misri ichra ey, yusuffjamol,
Garchi xoki ostonang uzra men xor o'lmisham.*

*Necha zulm etsa ko'ngil uzam parilar ishqidin,
Ko'chayi mehr-u muhabbat ichra beor o'lmisham.*

*Soqiyo, la'li labingdin jomi davronimni quy,
Umrlar hajr ilkidin lab tashna xummor o'lmisham.*

*Muhsiniy shirin kalom avsof-u husningni debon,
Shukrulilloh madhing ila toza guftor o'lmisham*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 58^b].

Xulosa

Yuqoridagi kuzatishlar asosida quyidagi xulosaga keldik:
Mumtoz shoirlarimiz adabiy merosini birlamchi manbalar

asosida qiyosiy o'rganish, mavjud nashrlarda uchraydigan matniy xatoliklarni bartaraf etadi.

Qo'lyozmalarni sinchkovlik bilan tadqiq etish natijasida yangi she'riy asarlarni topish va keng ilm ahliga taqdim qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Manbalarni qiyoslash jarayonida she'riy asarlar matni ustida muallif tomonidan amalga oshirilgan tahrirlar aniqlanadi va muhim nazariy xulosalarga kelinadi.

Husaynquli Muhsiniyning nashr qilingan devoni va uning qo'lyozma manbalarini qiyoslash natijasida yangi she'rlari aniqlandi, hamda ilmiy jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Shoir adabiy merosini to'liq holda ilmiy muomalaga olib kirish dolzarb masala hisoblanadi. Muhsiniyning lirik merosini qo'lyozma manbalar asosida qiyosiy o'rganib, matniy saktaliklardan holi to'ldirilgan nashrini amalga oshirish galdagi vazifalardandir.

Adabiyotlar

- Қосимов, Б. 1983. *Излай-излай топганим...* Рисола. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Қосимов, Б. ва бошқа; 2004. *Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Маънавият нашриёти.
- Муҳсиний. 2008. *Барҳаёт гулшан*. Фарғона: Фарғона нашриёти.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фонди. 7392 рақамли қўлёзма. 168 varaq*.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон. Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Инв.4303*.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Баёз. Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Инв. 178*.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон. Тўқ жигарранг. Қўқон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади*.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон. Қора муқовали. Қўқон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади*.
- Жаббаров, Н. 2020. *"Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони"*. Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Наманган: Актив принт нашриёти.
- Сирожиддинов, Ш. Умарова, С. 2017. *Ўзбек матншунослиги қирралари*. Тошкент: Академнашр нашриёти.
- Yusupova, D. 2022. *Arus va mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Tamaddun nashriyoti.

Studying the manuscripts of "Gulshani Javid"

Furqat Tukhtamuratov¹

Abstract

Husaynquli Muhsini Mili is a poet who lived in Kokan during the renaissance. From Muhsini, we have received a significant lyrical legacy. These are four manuscript copies of the poet's divan «Gulshani Javid», copied in different ears. Two of these manuscripts are kept in the manuscript funds and museums of Tashkent and Kokan cities. Today, the descendants of the poet living in Kok have two manuscripts.

When we compared the most perfect, complete and well-preserved Tashkent copy with the edition, it became clear that there were about a hundred new poetic works. The newly discovered lyrical poems belong to the genres of ghazal, muzam, mukhammas, musaddas, murabba', masnavi, qasida, tarikh, noma and rubai.

This article presents some examples of Muhsini's new poetic works found as a result of a comparative study of manuscripts and publications. These poems are written in a deep and melodious style, which proves the high talent and skill of the poet. In particular, the poet's poems express romantic and religious-mystical themes in a unique way. These lyrical works are valuable even though they have not been published so far.

Key words: *manuscript, divan, genre, ghazal, transformation, literary environment, comparison.*

References

- Qosimov, B. 1983. *Izlay-izlay topganim...* Risola. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Qosimov, B. va boshqalar . 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.* Toshkent: Ma'naviyat.
- Muhsiniy. 2008. *Barhayot gulshan.* Farg'ona: Farg'ona nashriyoti.
- Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon.* O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 7392 raqamli qo'lyozma.

¹ *Furqat S. Tukhtamuratov* – Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alishera Navoi.

E-mail: toxtamuratov81@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

For citation: Tukhtamuratov, F. S. 2024. "Studying the manuscripts of "Gulshani Javid". *Golden scripts* 1: 40 – 56.

168 varaq.

- Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon. G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyi fondi. Inv.4303.*
- Muhsiniy. *Qo'lyozma. Bayoz. G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyi fondi. Inv. 178.*
- Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon. To'q jigarrang. Qo'qon shahrida yashayotgan avlodlaridan To'xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.*
- Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon. Qora muqovali. Qo'qon shahrida yashayotgan avlodlaridan To'xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.*
- Jabrov, N. 2020. "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezon". *O'zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Namangan: Aktiv print nashriyoti.*
- Sirojiddinov, Sh. Umarova, S. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari. Toshkent: Akademnashr nashriyoti.*
- Yusupova, D. 2022. *Arus va mumtoz poetikaga kirish. Toshkent: Tamaddun nashriyoti.*

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:
[Xondamir, Makorim, 17³]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]
[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62